

Markaziy Osiyoda zohidlik maktablari shakllanish jarayonlari

Gulnora Xudoyberganova
g.khudoyberganova@gmail.com
dotsent, PhD

O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi

Annotatsiya: Maqolada islomdagi asketik amaliyotlarning mintaqalarga ko'ra o'ziga xosliklari, jumladan, Markaziy Osiyo zohidlik maktabini boshqa Xuroson va Basra zohidlik maktablaridan ajratib turadigan muhim jihatlardan biri sifatida, unda zohidlarning asosiy qismini aholining ijtimoiy faol qatlamlari vakillari – muhaddis va faqih darajasiga ega bo'lgan imomlar, qozilar va boshqalar tashkil etgani sababli, tashqi zuhd (jismoniy zuhd) – jamiyatdan butunlay uzilib, ashaddiy tarkidunyochilikka berilishdan ko'ra, ichki zuhd (dildagi zuhd) – odamlar orasida ijtimoiy faol hayot kechira turib, qalban zohid bo'lish holati ko'proq uchragani keltirilgan.

Kalit so'zlar: asketik amaliyotlar, zohidlik maktablari, Movarounnahr, Xuroson, tashqi zuhd, ichki zuhd, sufiylik, Shaqiq Balxiy, Hotim Asamm, Abu Turob Nahshabiy.

Процессы формирования школ аскетизма в Центральной Азии

Худойберганова Гульнора
g.khudoyberganova@gmail.com
доцент, PhD

Международная исламская академия Узбекистана

Аннотация: В статье рассматриваются особенности аскетических практик в исламе в зависимости от региона, в частности, как одна из важных особенностей, отличающих школу аскетизма Центральной Азии от других школ аскетизма Хорасана и Басры, отмечается, что основную часть аскетов в ней составляли представители социально активных слоев населения – имамы, казии и другие, имевшие степень мухаддиса и факиха, поэтому здесь чаще встречался внутренний аскетизм (аскетизм в душе) – состояние аскетизма в душе, проживая социально активную жизнь среди людей, чем внешний аскетизм (телесный аскетизм) – полное отчуждение от общества и предательство крайнему отречению от мира.

Ключевые слова: Аскетические практики, школы аскетизма, Мавераннахр, Хорасан, внешний аскетизм, внутренний аскетизм, суфизм, Шакик Балхи, Хатим Асम्म, Абу Тураб Нахшаби.

Formation Processes of Ascetic Schools in Central Asia

Khudoyberganova Gulnora
g.khudoyberganova@gmail.com
Associate Professor, PhD

International Islamic Academy of Uzbekistan

Annotation: The article examines the characteristics of ascetic practices in Islam according to the regions, in particular, as one of the important features distinguishing the Central Asian ascetic school from other Khorasan and Basra ascetic schools, it is noted that the main part of ascetics in it were representatives of socially active segments of the population – imams, qazis, and others who had the degree of muhaddith and faqih, therefore, internal asceticism (asceticism in the soul) - a state of asceticism in the soul while living a socially active life among people, was more common than

external asceticism (bodily asceticism) - complete alienation from society and betrayal of extreme renunciation of the world.

Keywords: *Ascetic practices, ascetic schools, Maverannahr, Khorasan, external asceticism, internal asceticism, Sufism, Shaqiq Balkhi, Hatim Asamm, Abu Turab Nakhshabi.*

KIRISH. VIII asrning birinchi yarmida Movarounnahrda islom dini bilan birgalikda islom ilmlari – tafsir, hadis, fiqh va kalom ham kirib kelgan. IX asrdayoq bu hudud to‘lalgicha musulmon o‘lkaga aylanib bo‘ldi[1]. Islom madaniyatining oltin davri bo‘lmish IX-XI asrlarda fan va madaniyat rivoji Xuroson va Movarounnahr hududiga ko‘chdi[2].

Bu davrda o‘lkada somoniylar sulolasi (875-999) hukmronligining o‘rnatilishi va mustahkamlanishi hanafiylikning Movarounnahrda hukmron mavqeni egallashiga, shuningdek, islom ilmlarining yanada kengroq yoyilishiga qo‘l keldi. Somoniylar davrida ko‘plab madrasalar va kutubxonalarning ochilishi hamda keng faoliyat ko‘rsatishi diniy va dunyoviy fanlar taraqqiyotini belgilab beruvchi omillardan biri bo‘lib xizmat qildi[3].

Markaziy Osiyoda hukmron mazhab maqomini egallagan sunniylik-hanafiylik o‘lkada sufiyona qarashlar va turmush tarzining shakllanishida ham muhim omillardan biri bo‘lgan. Nemis sharqshunosi U. Rudolf mintaqadagi hanafiylik ilohiyotini hamisha ham sufiylik tamoyillaridan aniq ajratishning iloji yo‘qligini e‘tirof etadi. Zero, Markaziy Osiyoda islom dini, jumladan, hanafiylik mazhabining yoyilishida muhim o‘rin tutgan shaxslarning ko‘pchiligi zohid sifatida ham tanilgan edi[4].

Tarixchi Narshaxiy bu o‘lkada nafaqat islom dini sunniylik yo‘nalishining hanafiy mazhabi, balki, umuman, islom dini va ilmlarining yoyilishida katta rol o‘ynagan shaxs Abu Hafs Kabirni ham zohid deya tilga oladi. Eronlik tadqiqotchi Muhammad Odil Zifiy Movarounnahr hanafiylik fiqhining yana bir zabardast vakili Abulqosim Is‘hoq ibn Muhammad ibn Ismoil Hakim Samarqandiyning (vaf. 953-y.) Movarounnahr hanafiylik fiqhining zohidona qarashlari shakllanishiga ko‘rsatgan katta ta‘siriga e‘tibor qaratadi. Shuningdek, bir qator tasavvuf manbalarida Hakim Samarqandiy sufiylar qatorida zikr etilgan. U. Rudolf ham uning islom fiqhining buyuk olimi bo‘lish bilan birga, sufiy sifatida ham mashhur bo‘lganini ta‘kidlaydi. Bundan tashqari, ayrim manbalarda hanafiylik fiqhining Samarqand tarmog‘i vakili, mashhur mutakallim Abu Mansur Moturidiyning (vaf. 944-y.) zohidona hayot tarzi to‘g‘risida ma‘lumotlar keltirilgan.

Movarounnahrda turli e‘tiqodlar va aqidaviy oqimlarning mavjud bo‘lganligi ham o‘lkadagi zohidlik harakati va qarashlarining shakllanishi va takomillashishida ma‘lum o‘rin tutgan, deyish mumkin. Zero, bu davrda hukm surgan somoniylar davlati o‘z hududida turli dinlar, maktablar va oqimlarning mavjudligi bilan ham boshqa musulmon o‘lkalaridan ajralib turgan. Tarixchi Maqdisiyning yozishicha, somoniylar saltanati hududidagi aholining aksariyati sunniylikning hanafiy mazhabiga e‘tqod qilar, biroq Shosh, Iloq, Tarozi, Buxoro, Tus, Niso, Abivard, Isfaroyin, Marv, Hirot va Seyiston orasida shofeiylar ham tarqalgan, qozilar esa faqatgina ushbu ikki mazhab vakillari orasidan saylangan[5]. Shu bilan birga, somoniylar saltanatiga kiruvchi o‘lkalarda islomning boshqa mazhablari, ta‘limotlari va oqimlari ham mavjud bo‘lib, Seyiston va Xirotda xorijiylik, Nishopurda mo‘taziliylik, shialik, karromiylik, Xurosonning ayrim joylarida qadariylik hamda Termizda jahmiylik kabi yo‘nalishlar, maktablar va oqimlarga ergashgan guruhlar mavjud edi[5]. Maqdisiy karromiylarning Xuttalon, Marv, Samarqand va Farg‘onada o‘z xonaqohlariga ega bo‘lganliklarini eslatib o‘tgan[6]. Bundan tashqari, somoniylar davlati islomdan boshqa dinlar vakillari bemalol yashab, faoliyat ko‘rsatgan diniy bag‘rikenglik diyori sifatida ham mashhur bo‘lgan. Jumladan, “Ahsan at-taqosim” asarida o‘sha davrdagi Movarounnahr va Xuroson hududlarida yahudiylar, xristianlar va zardushtiylar jamoalari mavjud bo‘lganligi to‘g‘risida ma‘lumot berilsa, “Hudud al-olam” asarida Xurosonning sharqiy hududlarida buddaviylik, So‘g‘dda esa moniylik dinlariga e‘tiqod qiluvchi kishilar yashaganligi eslatib o‘tilgan[7]. Mazkur dinlar va mazhablar, diniy-aqidaviy va falsafiy oqimlarning Markaziy Osiyo ijtimoiy hayotidagi ishtiroki o‘lkadagi zohidlik harakatiga, bir

tomondan, islom dini yoki hanafiylik aqidalarini himoya etish maqsadida ularning qarashlari va g'oyalari bilan kurashish natijasida takomillashish, ikkinchi tomondan, ulardagi ayrim sufiyona unsurlarni qabul qilish ko'rinishida ta'sir o'tkazgan bo'lishi ham ehtimoldan xoli emas. A.Knish Xuroson zohidlik maktabining vakili, uddaburon savdo-sotiq olib borgan, keyinchalik ayrim zohidlar, jumladan, mashhur zohid Hotim Asamm (vaf. 851-y.)ga ustozlik qilgan Shaqiq Balxiy (vaf. 810-y.) buddaviylik dini rohibi bilan uchrashganidan keyin zuhd yo'liga kirganini qayd etadi[8]. A.Shimmel esa, nafaqat boshqa dinlar va ta'limotlarning Markaziy Osiyo tasavvufining vujudga kelishi, xususan, Turkistonda tasavvuf shakllanishiga to'xtalar ekan, bu diyorda tarqalgan islomiy va buddaviy qissalardagi o'xshashliklarga e'tibor qaratadi[9]. Shuningdek, u musulmonlarning Xuroson va Movarounnahrda muayyan zohidlik tajribasiga ega bo'lgan buddaviylar bilan to'qnash kelganliklari, boshqa ayrim o'lkalar qatorida Markaziy Osiyoda ham tarqalgan moniylik dini musulmon olimlarining diqqatini tortganligi, ayrim sufiylarning ushbu dinga moyillikda ayblanganliklarini eslatib o'tadi[9].

Bundan tashqari, Markaziy Osiyodagi sufiylik harakatining vujudga kelishida g'oziyalar ijtimoiy qatlamining rolini ham unutmash kerak. Manbalar Xuroson va Markaziy Osiyodan yetishib chiqqan sufiylar, jumladan, zohidlardan Shaqiq Balxiy (vaf. 810-y.), Hotim Asamm (vaf. 851-y.) va Abu Turob Naxshabiyning (vaf. 834-y.) g'oziyalar sifatida janglarda ishtirok etganliklari to'g'risida ma'lumot beradi.

Yuqoridagilardan ma'lum bo'ladiki, zohidlik tajribasi ma'lum davrda shaxsiy amaliyotdan muayyan guruhlar darajasidagi ommaviylashgan harakat shakliga o'ta boshlagan.

Markaziy Osiyoda zohidlikning tom ma'nodagi g'oyaviy-ijtimoiy harakat sifatida shakllanishi va yoyilishida Marv muhiti alohida o'rin tutgan deyish mumkin. Manbalarda Markaziy Osiyodan chiqqan ilk zohidlardan biri sifatida Abu Abdurahmon Abdulloh ibn Muborak ibn Vozih Hanzaliy Turkiy Marvaziy (736-797) tilga olinadi. Sam'oniyni yozishicha, u yetuk faqih va qomusiy olim bo'lishi bilan birga zohidlarga xos vara' va saxo (saxovat)da tanilgan. E'tiborni tortadigan jihati shuki, Markaziy Osiyodagi zohidlik harakatining asoschilaridan hamda uning keyingi rivojini belgilab beruvchilardan biri hisoblangan bu shaxs boshqa zohidlik maktablari vakillaridan farqli ravishda, tarkidunyochilikka emas, balki ijtimoiy faol turmush tarziga asoslangan zohidlikni yoqlagan. A.Knish uni nisbatan o'rtamiyona zohidlik namunasi sifatida qayd etadi[10]. Abdulloh ibn Muborak nafaqat zohidlik amaliyotining rivojiga hissa qo'shgan ilk asarlardan birining muallifi sifatida ilmiy-nazariy tasavvuf asoschilaridan biri ham hisoblanadi. O'zining "Kitob az-zuhd" ("Zohidlik to'g'risida kitob") nomli hadislar to'plamida Payg'ambar (a.s.) va sahobiyalar hayotidagi zuhd namunalarini to'plashga muvassar bo'lgan.

Marv muhitida shakllangan zohidlik ta'limoti Markaziy Osiyoning boshqa yirik madaniy, ilmiy va diniy markazlariga ham yoyila boshladi. IX asrga kelib Buxoroda zohidlikning keng tarqalganini ko'rish mumkin. Bu davrdagi Buxoro zohidligida Marv muhiti bilan birgalikda Iroq va Shom zohidlik va sufiylik maktablari ta'siri ko'rina boshlaydi. Jumladan, IX asr Buxoro zohidlik harakatining mashhur namoyandalari sifatida Abu Muhammad Iso ibn Muso Gunjorning (vaf. 801-y.), Abu Umar Hafs ibn Mansur Paykandiy Farishtiy (II/IX a.), Abu Ishoq Ahmad ibn Is'hoq Surmoriy Zohid (vaf. 856-y.) kabilarni keltirish mumkin.

Sufiylik manbalarida Markaziy Osiyodan yetishib chiqqan yana bir mashhur zohid – Qashqadaryo vohasining Naxshab shahridan bo'lgan Abu Turob Naxshabiyga (vaf. 834-y.) ko'proq e'tibor qaratiladi. Sulamiy va undan keyingi boshqa sufiy mualliflar Abu Turob Naxshabiyni sufiylarning yashagan davri va tasavvuf tarixidagi o'rniga qarab avvaliga besh, keyinchalik esa olti tabaqaga bo'lingan tizimidagi birinchi tabaqada – tasavvufga asos solgan ilk sufiylar qatorida keltirishgan[11]. Sulamiy va Sam'oniyni ma'lum qilishicha, Xurosonning Balx va Iroqning Basra shaharlarida sufiylik ta'limini olgan Abu Turob Naxshabiy o'zining zohidlik faoliyatida futuvvat, tavakkul, zuhd va vara' g'oyalarini targ'ib qilgan.

Abu Turob Naxshabiy o'z faoliyati bilan Markaziy Osiyo zohidlik maktabining yana bir tarmogi – Qashqadaryo tarmog'iga asos solganligini taxmin qilish mumkin. Zero, ushbu sufiydan

so'ng mazkur diyorda zohidlik harakatining keng yoyilganligi kuzatiladi. Qashqadaryo zaminidan yetishib chiqqan zohidlik davrining mashhur vakillaridan biri Abu Abdurahmon Muoz ibn Ya'qub an-Nasafiy Kosoniy (IX a.) bo'lib, u nafakat o'z shaxsiy hayoti bilan zuhd va vara' namunalarini ko'rsatgan, balki zohidlar uchun masjid, rabot va boshqa inshootlar bunyod etish ishiga hissa qo'shgan. Sam'oniylarning 834-yili jome' masjidi, bundan tashqari, "Sikkat uz-zuhhod" ("Zohidlar ko'chasi") deb nomlanuvchi mavzeda masjid, rabot, quduq va tahoratxona qurdirganini, keyinchalik bu ko'cha "Abu Abdurahmon az-Zohid ko'chasi" deb ham atalganligini yozib qoldirgan[12].

Markaziy Osiyo zohidlik harakati Marv va Buxorodan so'ng IX asrda Qashqadaryo vohasi bilan bir vaqtda Samarqandda ham keng yoyiladi. Sam'oniylarning yozishicha, Abu Zakariyo Yahyo ibn Muhammad Varag'sariy (vaf. 846-y.) samarqandlik ilk mashhur zohidlardan bo'lgan[13]. U Samarqanddan besh farsax uzoqlikdagi Varag'sar rabotining voliysi (qarovchisi, rahbari) sifatida shu yerdagi xonaqoda ibodat bilan mashg'ul bo'lgan. Sam'oniylar samarqandlik mashhur muhaddis Abu Muhammad Abdulloh ibn Abdurahmon Samarqandiy Dorimiyni (798-870) ham obid na zohidlar qatorida sanab o'tgan. Dorimiyning zohidligini tasdiqlovchi misol sifatida Samarqand hokimi unga mazkur viloyat qozilgini taklif etganida u qabul qilmagani keltiriladi.

Markaziy Osiyo zohidlik maktabini boshqa, jumladan, Xuroson va Basra zohidlik maktablaridan ajratib turadigan muhim jihatlardan yana biri shuki, unda zohidlarning asosiy qismini aholining ijtimoiy faol qatlamlari vakillari, jumladan, islom ulamolari – muhaddis va faqih darajasiga ega bo'lgan imomlar, qozilar va boshqalar tashkil etgan. Shu sababdan bo'lsa kerak, unda tashqi zuhd (jismoniy zuhd) - jamiyatdan butunlay uzilib, ashaddiy tarkidunyochilikka berilishdan kura ichki zuhd (ko'ngildagi zuhd) - odamlar orasida ijtimoiy faol hayot kechira turib qalban zohidlik qilish unsurlari ko'proq uchraydi. Markaziy Osiyo zohidligini nafaqat boshqa o'lkalardagi zohidlik harakatlaridan ajratib turadigan, balki ulardan ma'lum ma'nodagi ustunligini ham ta'minlaydigan boshqa bir tomoni uning ilmiy-nazariy tabiatga ham ega ekanligidir: ushbu mintaqadagi zohidlik harakati vakillari tasavvufga bag'ishlangan ilk asarlarni yaratganlar[13].

VIII-IX asrlarda Markaziy Osiyoda boshqa zohidlik maktablari, xususan, Xuroson zohidlik maktabidan alohida bo'lgan mustaqil zohidlik maktabi shakllangan va faoliyat ko'rsatgan deyish mumkin. Markaziy Osiyoda VIII-IX asrlarda kechgan zohidlik davri tasavvufning ushbu o'lkadagi keyingi taraqqiyotida muhim o'rin tutdi. Markaziy Osiyo zohidlik maktabi yirik vakillarining ta'limotlari va g'oyalari X asrda ushbu o'lkada shakllangan Markaziy Osiyo sufiylik vakillari faoliyatida ham ko'zga tashlanadi.

Keltirilgan ma'lumotlar asosida islomdagi asketik jarayonlar yoyilgan mintaqasiga xos bo'lgan xususiyatlarni kasb etib borgan. Bu xususiyatlar shakllanishida diniy, ijtimoiy, siyosiy, geografik, xalqlar mentaliteti kabi omillar muhim o'rin tutgan. Ushbu mintaqaviy xususiyatlar asketik qarash, amaliyot va marosimlar, tashqi ko'rinish, maxsus ibodat inshootlari hamda asketizm vakillarining turmush tarzlarida namoyon bo'lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. История Востока. (2002). Восток в средние века [History of the East. In 6 vols. Vol. 2. The East in the Middle Ages]. Вост. Лит, 6. 2. 255.
2. Abduhalimov, B. A. (2010). "Bayt al-hikma" va Markaziy Osiyo olimlarining Bag'doddagi ilmiy faoliyati (IX-XI asrlarda aniq va tabiiy fanlar) ["Bayt al-hikma" and the scientific activity of Central Asian scientists in Baghdad (IX-XI centuries exact and natural sciences)]. O'zbekiston, 9.
3. Mahbub Maxdaviyon (2006). Somoniylar davri falsafa va kalomning rivojlanish shart-sharoitlari [Conditions for the development of philosophy and theology during the Samanid era]. Islom tarixi va sivilizatsiyasi [Islamic history and civilization], (3), 29-31.
4. Ульрих, Р. (1999). Аль-Матуриди и суннитская теология в Самарканде [Al-Maturidi and Sunni theology in Samarkand]. Фонд "XXI век". 100.
5. Ульрих, Р. (1999). Аль-Матуриди и суннитская теология в Самарканде [Al-Maturidi and Sunni theology in Samarkand]. Фонд "XXI век". 39.

6. Рахимов, К. (2020). Мовароуннаҳр тасаввуфи тарихи: таълимотнинг шаклланиши ва тизимлаштирилиши (VIII-XI асрлар) [History of Mawarannahr Sufism: The formation and systematization of the doctrine (VIII-XI centuries)]. Академнашр. 38.
7. Кныш, А. Д. (2004). Мусульманский мистицизм. ДИЛЯ. 39
8. Шиммель, А. (2000). Мир исламского мистицизма. Алетейа, Энигма. 18.
9. Кныш, А. Д. (2004). Мусульманский мистицизм. ДИЛЯ. 27.
10. Рахимов, К. (2020). Мовароуннаҳр тасаввуфи тарихи: таълимотнинг шаклланиши ва тизимлаштирилиши (VIII-XI асрлар) [History of Mawarannahr Sufism: The formation and systematization of the doctrine (VIII-XI centuries)]. Академнашр. 42.
11. Sulamiy (n.d.). (1960). *Tabaqot us-sufiya*. 46-47.
12. Рахимов, К. (2020). Мовароуннаҳр тасаввуфи тарихи: таълимотнинг шаклланиши ва тизимлаштирилиши (VIII-XI асрлар) [History of Mawarannahr Sufism: The formation and systematization of the doctrine (VIII-XI centuries)]. Академнашр. 45.
13. Рахимов, К. (2020). Мовароуннаҳр тасаввуфи тарихи: таълимотнинг шаклланиши ва тизимлаштирилиши (VIII-XI асрлар) [History of Mawarannahr Sufism: The formation and systematization of the doctrine (VIII-XI centuries)]. Академнашр. 47.